

YOSH AVLODNI HAR TOMONLAMA BARKAMOL QILIB TARBIYALASHDA SPORTNING O'RNI VA AHAMIYATI

Jumaniyazova Maxira Rahimbergan qizi

UrDU "Sport o'yinlari" kafedrası dotsenti

O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sport davlat siyosatining ustuvor vazifalaridandir. Sport bilan shug'ullanuvchilarning jismoniy rivojlanishi, jismoniy tayyorgarligi va yurish-turishi, muloqot olib borishida o'zi shug'ullangan sport xususiyatlariga qarab shakllanib boradi.

Innovatsion rivojlanishga qadam qo'ygan jamiyatimiz barcha sohalari, institutlari va tizimlarini yangi-yangi usullar, imkoniyatlar, samarali mexanizmlar topishga undamoqda. O'zbekistonni 2030 yilgacha innovatsion rivojlantirish kontseptsiasining qabul qilinishi har bir faoliyatni ana shu kontsepsiya maqsadiga muvofiq baholashni, mavjud muammolarni hal etishda yangicha yondashuvlarni qo'llashni taqozo etmoqda.

Sport insonning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirib, oldiga qo'ygan maqsadini amalga oshirishga yordam beradi. Sport bilan muntazam shug'ullangan shaxsda eng qiyin bo'lgan vaziyatlardan chiqa olish, do'stlariga va yaqinlariga yordam berish kabi umumiy fazilatlar tarbiyalanadi. Bu o'sib kelayotgan yosh avlodni psixologik tasir qilib muntazam tartib intizomli hayotda tarbiyalanish va omma oldida o'zini yoqtib qo'ymaydi.

Sportchi biron bir jamoada shug'ullansa, jamoa oldiga qo'ygan vazifa va maqsadlar sportchining shaxsiy maqsadlaridan ustun bo'lib, u jamoa oldiga qo'ygan g'oyalarga to'liq rioya qiladi. Shuni ta'kidlash joizki, sport kishiga o'zining harakatlarini ijobiy shakllantirishga yordam beradi. Sportga o'z hayotini bag'ishlagan sportchilar hayotga estetik qiziqishi, biror muhitda bo'layotgan hodisalariga oqilona munosabat bildirishi, har tomonlama mazmunli muloqot qilishi, tomoshabinlarga o'z ta'sirini o'tkazishi kuzatiladi. Umuman olganda, sport tarbiyasi shaxsni har tomonlama kamol toptirishda va tarbiyasida alohida o'rin tutadi. Sport bilan shug'ullanishda ko'p holatlarda o'sib kelayotgan o'quvchilarning qiyinchiliklar tufayli sport mashg'ulotlarini tashlab ketishi hollari ham uchraydi. Ammo sport bilan muntazam shug'ullangan iroda va ishonch kabi jismoniy, pedagogik, psixologik fazilatlarni o'zida tarbiyalagan sportchi, so'zsiz, sport musobaqalarining yuqori cho'qqilariga yo'l oladi.

Sport jarayoni murakkab bo'lib, unda sportchilar uzoq, mashaqqatli mehnat qilib, sport mahoratlarini va ko'nikmalarini sport musobaqa jarayonida bir lahzada namoyon qiladi. Lekin mana shu lahzada sportchining bor kuchi, irodasi, bilimi, erishgan yutuq va natijalari omma o'rtasida ko'z-ko'z qilinadi. Sport har qanday insonni tarbiyalashga qodir, u sport cho'qqilarini egallashda har bir shaxsdan o'ta irodali bo'lishni taqozo qiladi. Bunda sportchi bosqichma-bosqich sport sirlarini egallab boradi. Sportda ko'p fazilatlar bo'lib, ko'p va uzoq muddat shug'ullangan sportchilar sport sohasida shunday fazilatlarni o'zlarida tarbiyalaydilar.

Yosh bolalar sportini rivojlantirish masalasiga e'tibor berish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanganligi bejiz emas. Kattalar sportiga zamin yaratish ayni bir vaqtda yosh bolalar sportini rivojlantirish yo'li bilan amalga oshirilishi amaliyotda

o'z isbotini topganligini ko'ramiz. Shuni ham alohida takidlab o'tish lozimki, uch bosqichli sport musobaqalari tizimi asosida «Umid nihollari», «Barkamol avlod», «Universiada» deb nomlangan kichik olimpiada musobaqalarini o'tkazish va bu musobaqalar taqvimidagi sport turlarining yildan-yilga ortib borishi, so'zsiz, bolalar sportining rivojlanishida jiddiy omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shunisi qiziqki, o'quv muassasalarida musobaqalarni ommaviy tarzda o'tkazilishi va shu ommaviy sport tadbirlarida qatnashayotgan o'quvchilar orasidan iqtidorli, istedadli, jismoniy imkoniyatlari va sport mahorati yuqori bo'lgan bolalarni saralab, ularni yuqori darajadagi sport mashg'ulotlari jarayoniga jalb etish, shu asosda yuksak istedadli sportchilarni tarbiyalash, voyaga yetkazish imkoniyatini bermoqda.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T: 1997.
2. Yarashev Q.D. Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish. – T: 2002.
3. Obidov A.O., Novikov Yu.V. Sog'ligimiz o'z qo'limizda. – T: 1989.
4. Vilg'chskovskiy E.S. Razvitie dvigatel'g'noy funktsii u detey. – M., 1983.
5. Zatsiorskiy V.M. Fizicheskie kachestva sportsmena – M., 1970.
6. Matveev L.P. Osnovq sportivnoy trenirovki. – M., 1977.

Internet saytlari:

www.google.uz

www.ziyonet.uz